

**BO`LAJAK O`QITUVCHILARDA DEONTOLOGIK KOMPETENTLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING SHAKL, METOD VOSITALAR TAHLILI****G.K.Tosheva****Osiyo xalqaro universiteti magistranti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15165588>**

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchining deontologik kompetentlilik darajasi va uni rivojlantirish metod va vositalari haqida so'z boradi. Shuningdek rivojlangan davlatlarda bo'lajak o'qituvchining deontologik kompetentligini oshirishga doir olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, deontologik kompetentlik darajasini baholovchi omillar, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi kabi ko'nikmalarni egallashini ta'minlovchi deontologik yondashuvlar, pedagog olimlarning bu boradagi qarashlari va tavsiyalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: deontologik kompetentlik, pedagogik deontologiya, o'quv-tarbiya jarayoni, metod va vositalar yuksak axloq, kompetentlik, mas'uliyat, ijtimoiylashuv, qadriyat, funksiya

Аннотация. Цель обучения – улучшить преподавание деонтологической компетентности, использовать революционный метод и преподавать истину. Научные исследования, направленные на развитие деонтологической компетентности в образовании в различных странах, степени деонтологической компетентности, личностных, социальных и личностных характеристиках выпускников, рассказал о деонтологических ориентирах обеспечения равенства детей в обществе, взглядах и рекомендациях педагогов в этой области.

Annotation. The purpose of the teaching is to improve the teaching of deontological competence and to use a revolutionary method and to teach the truth. Scientific studies aimed at developing deontological competence in education in various countries, the degree of deontological competence, the personal, social, and personal characteristics of graduates he spoke about the deontological guidelines for ensuring the equality of children in society, the views and recommendations of pedagogues in this field.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini islox qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek o'z kasbining yetuk mutaxassis kadrlarini tayyorlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Mamlakatimizda ta'lim olayotgan bo'lajak pedagoglarda ta'il bilan bir qatorda o'z kasbiga mos deontologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish, ularni yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashi uchun zamon talabiga mos ravishda mutaxassis kadr qilib tayyorlash uchun barcha imkoniyatlardan keng foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu sababli ham bo'lajak o'qituvchilarni zamon talabiga mos ravishda inovatsion faoliyatga tayyorlash shuningdek ularda deontologik burchni chuqur anglab yetishi va unga rioya qilish ko'nikmasini shakllantirish, bo'lajak o'qituvchilarda yetarlicha kompetensiyaga ega bo'lish va bilim, ko'nikmalarini takomillashtirish va rivojlantirish bugungi oliy ta'lim oldida turgan eng asosiy vazifadir. O'qituvchi mukammal va tajribali bo'lmas ekan ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi. Shu sababli ham aynan bugun ta'lim berayotgan o'qituvchilarni yetuk mutaxassis bo'lishi har qanday sohaning taraqqiyotida asos vazifasini o'taydi.

Bo'lajak o'qituvchining deontologik madaniyatini shakllantirish konsepsiyasi o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi hamkorlik tamoyillariga, birgalikdagi samarali faoliyatga, kelajakda bo'lajak o'qituvchining deontologik kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bundan talab shundaki bugungi kunda oliy ta'limda tahsil olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning deontologik va kasbiy kompetentligi jahon standartlari, O'zbekiston ta'lim standartlari talablariga to'la javob berishi kerak. Bugungi kun o'qituvchisi ijodkor, tashabbuskor, o'z kasbining fidoiy ijrochisi, odob va axloq normalarining yetuk namunasi, kommunikativ kirishimli, kreativlik muammoga to'g'ri javob bera oladigan va bu asosda samarali metod va vositalardan foydalana oladigan, o'z burchiga sadoqat bilan yondashadigan yetuk kadr bo'lmog'i lozim. Bugun har qanday sohada faoliyat yurutayotgan mutaxassis asosiy bilim va malakani maktab jarayonida o'zlashtiradi. Maktabda yaxshi ta'lim-tarbiya olmagan o'quvchi oliy ta'limda ham yaxshi o'zlashtira olmaydi buning natijasida o'z kasbini yaxshi yuruta olmaydigan kadrlar yetishib chiqadi, aynan shuning uchun ham maktabda ta'lim berayotgan o'qituvchilarni yetuk mutaxassis bo'lmog'i lozim. Bu orqali nafaqat ta'limda balki barcha sohada taraqqiy etish va rivojlanish mumkin. Bugungi pedagog kasbiy faoliyatini o'z burchlarini deontologik talablar asosida tashkil etishi va o'zida mavjud bo'lgan kompetentlikni rivojlantirish asosida barkamol avlodni tarbiyasiga etobor berishi lozim. O'qituvchilik burchini yuksak darajada anglash, unga amal qilish muallimning xatti-harakatlarini tartibga solib, uning huquqlarini boshqarib turadi. Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish metodlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) bilish faoliyati turiga ko'ra: tushuntirishli-illyustrativ; reproduktiv; materialni muammoli bayon etish; qisman-izlanishli; tadqiqotchilik;
- 2) faol metodlar: evristik suhbat; o'quv munozarasi; adabiyotlar bilan mustaqil ishlash; kasbiy faoliyat imitatsiyasi;
- 3) vaziyatlarni tahlil qilishga doir: tasodifiylik; aqliy hujum; situativ; muammoli; ijtimoiy-pedagogik loyihalash.

Yuqorida sanab o'tilgan metodlar orqali ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni Bugun nafaqat mamlakatimizda balki butun dunyoda ta'lim sohasiga e'tibor kuchaytirilgan, ta'limni rivojlantirish uchun eng avvalo malakali kadrlarni tayyorlash, o'z kasbining mukammal mutaxassislarini yetishtirib chiqarish eng asosiy masaladir. Butun dunyoda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi sifatida deontologik kompetentlikni rivojlantirish, uning didaktik jihatlarini aniqlash, inovatsion faoliyatning asosi sifatida metodologik bilimlarni rivojlantirishning pedagogik mexanizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish quyidagi funksiyalarni amalga oshirish orqali natijaga erishish mumkin. Bular

1. Axloqiy-pedagogik: "Inson - jamiyat" va "inson - inson" tizimida pedagog tasavvurlarining axloqiy yo'nalganligi hamda turfa xil madaniyatlar dunyosidagi pedagogning deontologik missiyasini anglash va tadqiq etish;
2. Etnapedagogik: o'qituvchining etnomadaniyat (moddiy va ma'naviy) tarixiy tajribada aks etgan mentallik va insoniyat evolyusion rivojida ma'lum bir tilni uzatuvchi sifatuvchi etnosning rolini idrok etishni ko'zda tutadi;
3. Kommunikativ: pedagogik faoliyat maqsadi, pedagogik deontologiyaning tamoyillariga muvofiq bo'lajak o'qituvchining o'quvchilar bilan shaxsiy-ishbob tahlil o'zaro birgalikdagi

harakatlarning turli xil kommunikativ texnologiyalarini o'zlashtirish zaruratini o'zida ifoda etadi;

4. Tarbiyaviy : o'qituvchi kasbiy faoliyatining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadi hamda pedagogik burch va pedagogik deontologiya tamoyillariga muvofiq uzluksiz kasbiy rivojlanish, o'z-o'zini tarbiyalash orqali amalga oshadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish metodlariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) bilish faoliyati turiga ko'ra: tushuntirishli-illyustrativ; reproduktiv; materialni muammoli bayon etish; qisman-izlanishli; tadqiqotchilik; 2) faol metodlar: evristik suhbat; o'quv munozarasi; adabiyotlar bilan mustaqil ishlash; kasbiy faoliyat imitatsiyasi; 3) vaziyatlarni tahlil qilishga doir: tasodifiylik; aqliy hujum; situativ; muammoli; ijtimoiy-pedagogik loyihalash.

Xalqaro miqyosda bo'lajak mutaxassislarni har tomonlama yetuk kadr qilib tarbiyalash innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta'limni amalga oshirish bo'yicha dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo'lajak pedagoglarning mahorati mezonlari, o'qituvchiga deontologik malaka shuningdek dars jarayonini to'g'ri tashkil qilish va innovatsion ta'lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta'lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o'qituvchilarning deontologik kompetentligi rivojlantirish orqali dars jarayonida yanada samaradorlikka erishish, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatli qo'llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, reflektiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Bo'lajak o'qituvchining ma'naviy kompetentligi uning kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, mahorat, ko'nikmaga egaligida, uning pedagogik obro'-e'tibori, funksional, ya'ni kasbiy bilim va mahoratini amalda ro'yobga chiqara olishi. Intellektual, ya'ni tahliliy fikr yuritish va o'z vazifalarini bajarish uchun kompleks yondoshish qobiliyati, turli vaziyatlarga moslasha olib harakat qilish qobiliyati, ijtimoiy, kommunikativ va integrativ qobiliyatlarga egaligi, har qanday jamoada til topa olish qobiliyati kabilar bila uyg'unlashadi. Bunda uning madaniyatli; umuminsoniy qadriyatlarga egalik; milliy madaniyatga ega bo'lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilishi, jamiyat va insonlarga, tabiatga ijobiy emotsional munosabat da bo'lish tajribasi kabi ko'nikmalarga egaligi

Har bir vazifaning bajarilishi uning axloqiy qonun qoidalari va axloqiy me'yorlariga mos bo'lishi zarur. Axloq – ijtimoiy ong shaklanishidan biri sifatida inson turmushining barcha sohalarida kishilarning xulqi, xatti-harakatlarini tartibga soluvchi, boshqarib turuvchi qoidalar, tamoyillar, yo'l-yo'riqlar, mezonlar, normalar hamda pand-nasihatlar majmuidan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O.Musurmonova. Umumiy pedagogika. Toshkent. "O'zkitob savdo nashriyoti", 2020,
2. Ochilov M."Muallim – qalb me'mori" - T.: "O'qituvchi", 2001
3. Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983,
4. Mahmudova Dilnoza. Technology for the development of cognitive competence in future teachers based on the acmeological approach // EPRA International Journal of Research

Development. Volume 5. Issue 3. March 2020. pp. 464-465.

5. Бикова С.С. Формирование деонтологической компетентности у будущих педагогов в системе профессионального образования //Вестник Вятского государственного гуманитарного университета 2012 –Т. 3. –N- 4 -С. 37-41
6. Кертаева К.М Основы педагогической деонтологии . Алматы , 2002. -238 с.
7. “O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPENTLIKNING ROLI VA AHAMIYATI Oybek Rustamovich Ortiqov
8. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ISH SINIF O‘QITUVCHILARI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK DEONTOLOGIYA VA KOMPETENTLIK Maqsuda Maxsudovna Murodova
9. OLIY TA‘LIM JARAYONIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING MA‘NAVIY KOMPETENTLILIK DARAJASINI BELGILOVCHI OMILLAR Mamajonov O‘tkirbek Tajiddinovich Andijon davlat universiteti
10. O‘QITUVCHINING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALASIGA NAZARIY VA METODOLOGIK YONDASHUVLAR” B.X.Xusniddinova